

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI




ILMIY
AXBOROTNOMA | 2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

8

journal.namdu.uz



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinnbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika fanlari:

akad. S. Zaynobiddinov
akad. A. A'zamov
f-m.f.d., prof. B. Samatov
f-m.f.d., dots. R. Xakimov
f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov
f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
f-m.f.n., dots. R. Jalalov

Biologiya fanlari:

akad. K. Tojibayev
akad. R. Sobirov
b.f.d., prof. A. Batashov
b.f.d., prof. N. Abdurahmonov
b.f.d., prof. F. Kushanov
b.f.d., prof. A. Kuchboyev
b.f.d., dots. D. Dexqonov

Texnika fanlari:

t.f.d., prof. A. Umarov
t.f.d., prof. S. Yunusov

Tarix fanlari:

akad. A. Asqarov
s.f.d., prof. T. Fayzullayev
s.f.d., prof. N.B. Dexkanov
t.f.d., prof. A. Rasulov

Falsafa fanlari:

f.f.d., prof. M. Ismoilov
f.f.d. dots. Z. Isaqova
f.f.d., G. G'affarova
p.f.d., dots. T. Ismoilov
PhD. A. Abdullayev

Pedagogika fanlari:

p.f.d., prof. U. Inoyatov
p.f.d., prof. B. Xodjayev
p.f.d., prof. O'. Asqarova
p.f.n., dots. M. Nishonov
p.f.n., dots. A. Sattarov
p.f.n., dots. M. Asqarova
p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva
p.f.d., dots. S. Abdullayev
PhD., dots. D. Sarimsakova
PhD., B. Urinov

Texnik muharrir:

S. Xoshimov

Tahririyat manzili:

Boburshox ko'chasi, 161-uy

Kimyo fanlari:

akad. S. Nigmatov
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev
t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev
k.f.n., dots. T. Sattorov
k.f.n., dots. A. Hurmamatov
PhD., dots. D.S. Xolmatov

Filologiya fanlari:

fil.f.d., prof. N. Uluqov
fil.f.d., prof. H. Usmanova
PhD. H. Solixo'jayeva
PhD. dots. U. Qo'ziyev
PhD. H. Sarimsoqov
fil.f.d., N. Dosbayeva

Qishloq xo'jaligi fanlari:

g.f.d., prof. B. Kamalov
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

Geografiya fanlari:

g.f.d., dots. B. Kamalov
g.f.d., prof. A. Nigmatov
g.f.d., dots. A. Nazarov

Iqtisodiyot fanlari:

i.f.d., prof. N. Maxmudov
i.f.d., prof. O. Odilov

Tibbiyot fanlari:

b.f.d., prof. G'. Abdullayev
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

Psixologiya fanlari:

p.f.d., prof. Z. Nishanova
p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106сонли guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvoqiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 26-avgustdag'i 7-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 7). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



G'affarova Gulchehra G'ulamjanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori
falsafa fanlari doktori
gafforovagulchehra3@gmail.com

UO'K 1.16.168.522

KREATIVLIK INSON KAPITALINI RIVOJLANТИRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Kreativlik bu shaxsning fikrlash, his-tuyg'ular, muloqotda, faoliyatning turli sohalarida, faoliyat natijalarida va bu natijalarni yaratishda namoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyatdir. Oddiy so'zlar bilan aytganda, kreativlik - bu muammoni tez va g'ayrioddiy hal qilishdir. Bugungi kunda ijodkorlik muammosiga gnoseologik, kognitiv, iqtisodiy, psixologik, sinergetik, konektivistik, dinamika nazariyasi, sun'iy intellekt kabi yondashuolar mavjud. Muallif kreativlik yaxlit murakkab tizim bo'lib, uni o'rganishda sinergetik yondashuv konstruktiv rol o'yinaydi, degan g'oyani ilgari suradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, fikrlash, divergent fikrlash, transformatsiya, "raqamli iqtisodiyot", "kreativ iqtisodiyot", inson kapitali, nochiziqlilik, o'z-o'zini tashkil etish, tizim, murakkab tizim, sinergetika.

Гаффарова Гулчехра Гуламжановна

Чирчикский государственный педагогический университет профессор
доктор философских наук

КРЕАТИВНОСТЬ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация. Креативность – это способность личности к творчеству и созиданию, которая проявляется в мышлении, эмоциях, общении, в различных сферах деятельности, в результатах деятельности и при создании этих результатов. Простыми словами, креативность – это быстрое и необычное решение проблемы. К проблеме креативности сегодня существуют такие подходы как эпистемологический, когнитивный, экономический, психологический, синергетический, коннективистический, теория динамики, искусственный интеллект. Автор выдвигает идею о том, что креативность является целостной сложной системой и что синергетический подход играет конструктивную роль при её изучении.

Ключевые слова: креативность, мышление, дивергентное мышление, трансформация, "цифровая экономика", "креативная экономика", человеческий капитал, нелинейность, самоорганизация, система, сложное система, синергетика.

Gaffarova Gulchehra Gulamzhanovna

Chirchik State Pedagogical University professor
doctor of philosophy

CREATIVITY AS A FACTOR OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Annotation. Creativity is the ability of a person to be creative, which manifests itself in thinking, emotions, communication, in various fields of activity, in the results of activities and in the creation of these results. In simple terms, creativity is a quick and unusual solution to a problem. Today there are approaches to the problem of creativity such as epistemological, cognitive, economic, psychological, synergetic, connectivistic, theory of dynamics, and artificial intelligence. The author puts forward the idea that creativity is a holistic complex system and that the synergetic approach plays a constructive role in its study.

Keywords: creativity, thinking, divergent thinking, transformation, "digital economy", "creative economy", human capital, nonlinearity, self-organization, system, complex system, synergetics.

Kirish

Bugungi jamiyat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Albatta,

zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda dunyo ta'lrim nazariyasi va amaliyotida tez sur'atlar bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan jamiyatlar uchun muammolarni

samarali hal qilishga qodir, o'z mustaqil fikriga ega, o'zini inson faoliyatining turli jahbalarida namoyon eta oladigan, noan'anaviy va o'ziga xos intellektual-ijodiy tafakkur yuritishga, vaziyatga mos operativ qarorlar qabul qilishga qodir kreativ shaxslar zarurligi ta'kidlanib o'tiladi. Shu bois bugungi kunda kreativlik – XXI asr fuqarosi ijodkorligining muhim mezoni, uning yaxlit rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda yoshlarni munosib istiqbol vorislari, ijodkor inson qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilib, vatanimizning kelajagi ijodiy fikrlaydigan yoshlarning salohiyati va iqtidorini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish hamda innovatsion g'oyalar, ishlannmalar va texnologiyalarni yanada rivojlantirish talab etiladi. Shu sababli mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshliligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida "inson kapitalini rivojlantirish" – Taraqqiyot Strategiyasining bosh maqsadi etib belgilangan [1]. Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ta'kidlash lozimki, inson kapitali muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Kreativlikning darajalari mavjud bo'lib, ular yuqori va oddiy kreativlikdir. Yuqori darajadagi kreativlik yangi tamoyil, yo'nalish, g'oyalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Masalan, buyuk alloma A.Navoyning turkiy tilni yuksaltirishdagi xizmatlari, Ibn Sino, Xorazmiyning ilmiy ijodi, internetning, turli kompyuter dasturlarining kashf etilishi, A.Eynshteyn tomonidan nisbiylik nazariyasining yaratilishi shaxsning yuqori darajadagi kreativligining ifodasidir. Oddiy kreativlik esa turli mahsulotlar, g'oyalarni yanada takomillashtirish, faoliyat algoritmlarini yanada samarador qilishda va boshqa kundalik hayotning turli jahbalarida namoyon bo'ladi.

Mahalliy olimlardan M.N.Abdullayeva, N.A.Shermuamedova, Sh.Kubayeva, G.Tulenova, L.A.Qurbanova, G.Jalalova, G.G'affarovalarning ilmiy ishlarida inson tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirish hamda kreativ tafakkurning falsafiy-metodologik tomonlari yoritib berilgan.

Tadqiqotchi G.N.Ibragimova kreativlikni shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida e'tirof etadi [8, 10].

Kreativ yondashuv masalasidagi ilmiy adabiyotlar tahlili shaxsdagi ijodkorlik ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq degan fikr-mulohazalar mavjudligini ham ko'rsatadi [2; 4; 9-10; 20-21; 24].

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, tanqidiylik, tizimlilik, sinergetik metodlardan foydalanildi.

Natijalar

Bugungi kunda eng kreativ mamlakat sifatida Buyuk Britaniya, AQSH va Germaniya e'tirof etilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra Germaniyada kreativ sinf 1 mln kishini tashkil etadi [16].

Ilmiy muomalaga "kreativ iqtisod" atamasini 2000 yilda «Business Week» jurnali tomonidan kiritilgan. 2001 yilda Dj.Xokins, Ch.Lendri, T.Kouen, S.Lesh, R.Keyvs, T.Flyu, Dj. Xartfield, Dj.Okonor, P. Rey, L.Nakamur, K.Zeltser, N.A.Gorelov va boshqa olimlar ham mazkur mavzuni turli tomonlarini tadqiq etmoqdalar. 1970 yildan buyon har yili bu mavzu doirasida 250 tagacha dissertatsiyalar taqdim etilib turli ta'riflar berilmoqda.

Govard Gardner tadqiqotlariga ko'ra, kreativlik bir necha turga bo'linadi. Ya'ni, insonda kreativlik lingvistik, mantiqiy matematik, makloni ifoda etishda, tana-kinestik, musiqa, shaxslararo, naturalistik turlarda namoyon bo'lishi mumkin [5]. Natijada kreativ shaxs, kreativ mahsulot, kreativ muhit vujudga keladi.

F.Choriyev kreativ tafakkur borasida quyidagicha fikr bildiradi: "Insonda kreativ tafakkur qobiliyat bilan uyg'unlikda amalga oshadi. Ilmiy faoliyat olib borgan, ixtirochilik namunasini namoyon etgan yoki ijodiy faoliyat olib borgan shaxs kreativlikning subyekti sifatida baholanadi. Shuningdek, shaxsning aqliy qobiliyatni va kreativ tafakkuri yuqori bo'lsa, u shunga mos ravishda samarali ijod qila boshlaydi" [20].

G.G'affarova va D.O.Norboyevalar "Kreativlik falsafasi" nomli monografiyasida kreativlik tushunchasi, kreativ fikrlash shakllari va ko'rinishlari, kreativ fikrlashning bugungi kundagi ahmiyati, o'z sohasini mutaxassis bo'lish uchun kreativlikning o'rni va asosiy jihatlari kabi masalalar tahlil etilgan [10].

Muhokama

Inson kapitalini yoshlarimizda yanada rivojlantirishda ulardagi kreativlik muhim ahmiyat kasb etadi.

Kreativlik (lotincha creatio - ijodkorlik) - bu insonning standart g'oyalar, qoidalar va naqshlardan chetga chiqish qobiliyatidir [25]. Bundan tashqari, kreativlik progressiv yondashuv, tasavvur va o'ziga xoslikning mavjudligini nazarda tutadi. Uni turli faoliyat turlarida, uning mahsulotlarida, shuningdek, shaxs sifatining ayrim jihatlarida kuzatish mumkin. "Kreativlik" va "ijodkorlik" o'xshash, ammo bir xil tushunchalar emas. Ijodkorlik - bu insonning san'at buyumlarini yaratish jarayoni. Ijodkorlik ijodiy ishning alohida shartidir. Natijada, ijodkor odam doimo ijodkorlikka ega, bu uning ajralmas qismidir.

Inson kreativligiga e'tiborning tobora ortib, ijtimoiy ahmiyat kasb etayotganligi ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlari bilan bog'liqdir. Buni nimalarda ko'rish mumkin? Ya'ni zamonaqiy rivojlanish modellarida ko'rsatilishicha, insoniyat endilikda bilim va axborot, inson tafakkuri asosiy kapital bo'lib borayotgan "kognitiv jamiyat" yoki "kreativ iqtisodga" [22, 32-33] hamda "kreativ industriya" tomon qadam qo'ymoqda.

Kreativlik bu shaxsning tafakkuri, hissiyotlari, muloqotida, turli faoliyat sohalarida, faoliyat natijalari va mazkur natijalarni yaratishda namoyon bo'luchchi ijod, yangilik yaratishga bo'lgan qobiliyatidir. Oddiy so'z bilan aytganda kreativlik muammoni tez va noodatiy hal qilishdir.

Kreativlik odamlar tafakkurining ayrim xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan biri Arturom Kestler tomonidan bisotsiatsiya deb ataladi. "Bisotsiatsiya" atamasi ingliz yozuvchisi va mutafakkiri Artur Koestler tomonidan 1964 yilda "Akt tvorchestva" (Yaratilish akti) kitobida kiritilgan. Ushbu kitobda Koestler turli bilim sohalaridan ilgari bir-biriga bog'liq bo'luman ikkita tushunchani birlashtirib, yangi va original g'oyalarni yaratish jarayonini tasvirlaydi. U bu jarayonni "bisotsial fikrlash" deb ataydi. U adabiyot, fan, san'at va texnologiya kabi turli sohalarda innovatsion natijalarga erishish uchun bisotsiatsiyadan foydalanilganiga ko'plab misollar keltiradi.

Bisotsiatsiya - vaziyatni ikkita teng darajada mumkin bo'lgan, ammo normal sharoitda mutlaqo mos kelmaydigan koordinatalar tizimida idrok etish qobiliyatidir [19, 260]. Ushbu yondashuv natijasida ko'plab biznes innovatsiyalari paydo bo'ldi. Masalan, sodiq mijozlarni saqlab qolish uchun supermarketlarda chegirma kartalaridan foydalanish g'oyasi (bu kredit karta g'oyasining yangi holatiga moslashuviga imkon berdi). Darhaqiqat, bisotsiatsiya - bu ilgari bir-biriga mos kelmaydigan turli kontekstlardan olingan ikkita g'oyaning kombinatsiyasidir. Ushbu konsepsiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy texnikaning samaradorligi shundaki, inson odatiy fikrlash shakllaridan uzoqlashishga va bir-biriga bog'liq bo'luman tushunchalar o'rtaida aloqa o'rnatishga majbur bo'ladi. Fikrlar bir sohada harakatlanadigan assotsiatsiyadan farqli o'laroq, bisotsiatsiyada o'zboshimchalik bilan yoki qarama-qarshi fikr bo'shlqlari bog'langan bo'lib, ular butunlay yangi, hozirgacha "o'yab bo'lmaydigan" yechim yo'llariga olib keladi.

Bisotsiatsiya insonning kamida ikki xil faoliyat sohasida bilimga ega ekanligini anglatadi. Binobarin, tor dunyoqarashga ega, faqat bitta sohada malakali ishchiga omad kulib boqmaydi [19, 260]. Shu nuqtai nazardan, turli, bir-biriga bog'liq bo'luman faoliyat sohalari mutaxassislarini o'z ichiga olgan jamoalarning ijodiy salohiyati yuqori ekanligi ayon bo'ladi. Shuningdek, kreativlik fikrlashning moslashuvchanlik, intellektual harakatchanlik kabi xususiyatlarini talab qiladi. Bu vaziyat yoki muammoga turli nuqtai nazardan qarash qobiliyatidir.

E. Fromm kreativlik konsepsiyasiga ko'ra, hayratga tushish va o'rganish qobiliyat, nostandard vaziyatlarda yechim topish qobiliyat sifatida, bu yangi narsalarni kashf etishga e'tibor va o'z tajribasini chuqr tahlil qilish va tushunish qobiliyatidir. Kreativlik mezoni natijaning

sifati emas, balki ijodiy mahsuldarlikni faollashtiruvchi xususiyatlар va jarayonlardir.

A.G. Maslou kreativlikni o'z-o'zini namoyon qiluvchi shaxsning tabiiy xossasi sifatida belgilagan, bunda o'z-o'zini namoyon qilish inson salohiyatini o'z-o'zini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida shaxsning iste'dodlari, qobiliyatları va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni bildiradi. Ijodkorlik potensial ravishda har bir insonda mavjud, ammo ko'pchilik avtoritar muhitda "o'stirish" natijasida bu sifatni yo'qotadi. Muallif kreativlikni birlamchi (dastlab har bir shaxsga xos) - ilhomlantirilgan ijod bosqichiga va ikkilamchi (ijodiy mahsulotni tafsilotlash va unga o'ziga xos shakl berish jarayoni)ga ajratadi.

A.G.Maslou kreativlik nazariyasida markaziy o'ren motivatsiya tushunchasi bo'lib, u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilaydi: inson ehtiyojlar ierarxiyasida qanchalik yuqori ko'tarilsa, u shunchalik individuallik va ijodiy qobiliyatlarni namoyon etadi [15].

N.Y. Xryashcheva kreativlikni insonning konstruktiv, nostandard fikrlash va xulq-atvor qobiliyat, o'z tajribasidan xabardorligi va rivojlanishi sifatida tushunadi. Tadqiqotchi kreativlik boy tasavvur, hazil tuyg'usi, yuksak estetik qadriyatlarga sodiqlik, muammo tasvirlarini bataysil tasvirlash qobiliyatida namoyon bo'lishini qayd etadi. Bu qobiliyatni amalga oshirishning muhim sharti o'zini tuta bilish va o'ziga ishonchdir. Xuddi shunday konsepsiyanı M.A.Xolodnaya, tor ma'noda kreativlikni turli xil fikrlash sifatida belgilaydi, uning asosiy xususiyati bitta obyektga nisbatan ko'p, turli darajada, to'g'ri g'oyalarni ilgari surishga tayyorlikdir.

V.N.Drujininning fikriga ko'ra, kreativlik "individning faoliyatida samarali o'zgarishlarni ta'minlaydigan, tadqiqot faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradigan inson psixikasining integral sifati" [7, 199]. Ya'ni, kreativlik faqat situatsion xususiyat bo'lishi mumkin - reaksiya uning nafaqat xulq-atvor (vaziyatli) xususiyat sifatida rivojlanishi uchun atrof-muhit sharoitlari ta'sirida sodir bo'lishi kerak.

Tadqiqotchi M.B.SHerovning tadqiqotlarida "kreativ tafakkur" ikki xil xususiyatga ega bo'lgan so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, o'zida sifat va miqdor bilan bog'liq xususiyatlarni mujassam etadi [21, 200]. "Kreativlik"uning sifatini bildirsa, "tafakkur" esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma'noda kishining voqeа va hodisalarining o'ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi.

Kreativlikka fanlararo yondashuv ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilish mumkin: falsafiy, kognitiv (intellekt, bilim), kreativlikka ta'sir etuvchi emotsiyonallik va muhit omillari [3, 50-56].

Dj.Gilford divergent tafakkurni kreativlikning asosi sifatida e'tirof etadi [6]. Divergent tafakkur muammoni

hal qilish davomida nochiziqli fikrlashning mavjudligi bo'lib, inson muammoning bir qancha to'g'ri yechimi borligini ko'ra oladi.

S.Mednik esa ijodiy jarayonda konvergent va divergent tashkil etuvchilar birligi muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Konvergentlik muammoni hal qilishning yagona to'g'ri yechimini topa bilishdir [11, 162].

Zamonaviy tadqiqotlarda kreativlik muammosini molekulyar darajada o'rganish kuchayib bormoqda. M.Boden kognitiv yondashuv doirasida kreativlikni kompyuter modellashtirish asosida o'rjanmoqda. Olim o'z tadqiqotlarida kombinatsion, tadqiqotchilik, qayta yaratuvchilik kabi kreativlik turlarini ko'rsatib o'tadi [3, 50-56]. Shuningdek, kreativlik "Kreativlik sotsiopsixologiyasi" kabi fanlararo yondashuv sohasida ham keng tadqiq etilmoqda. Kreativlik sotsiologiyasida psixologiya, psixologii, pedagogika, iqtisodiyot, menejmentga asoslangan holda kreativlik muammosini empirik jihatdan o'rjaniladi. Keyingi 10-15 yilda esa kreativlikni neyrofiziologik yondashuv asosida o'rganish ham fanlararo yondashuv sifatida o'z o'mniga ega bo'lib bormoqda [14; 17-18; 23].

Sinergetik yondashuvda kreativlik, murakkab o'zini tashkil etuvchi jarayon sifatida ko'riladi. Yaratish demak, yangining tug'ilishiga ko'maklashish; insonning o'zidagi mavjud tafakkur deb nomlangan sintetik qobiliyatining faoliyat bilan faollashtirishdir. Aqliy faoliyatdagi sintez esa muammolarga xolistik qarashning mavjudligidir" [12, 20]. Demak, inson ongi avtopoyezis nazariyasiga asosan o'z o'zini timmsiz yangilab, o'zgartirib, yangitdan barpo etuvchi tizimdir.

E.Knyazeva fikriga asosan kreativlikning namoyon bo'lishi ham murakkab sinergetik jarayon bo'lib, unda xaos muhim o'r'in tutadi. Chunki xaos – evolyutsiyaning

asosiy elementdir. Olim murakkab tizimlarning tashkil topishidagi bunday qonuniyat inson kreativligiga ham tegishli deb hisoblaydi. Inson o'zining uyg'un holatidan chiqib, xaos holatiga tushar ekan, ijod uchun erkinlikni topadi va buning natijasida yangiliklar yaratadi. Ko'rini turibdiki sinergetik yondashuv kreativlikni murakkab tizim sifatida o'rganadi, uning insonning o'z o'zini tashkil etib boruvchi qobiliyatni sifatida e'tirof etadi.

Xulosa

Bugungi kunda inson kapitali bu global jahon bozorida mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlovchi innovatsion kreativ mehnat resurslari, ishlab chiqarishga xos bilimlar, intellektual kapital va barcha sohalardagi yangi texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kreativlik inson kapitali ko'rsatkichining jismoni, intellektual kabi asosiy tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun kreativlik zamonaviy innovatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalarni (texnik kreativlikni), biznesni (iqtisodiy kreativlikni) va madaniy (badiiy kreativlikni) mujassam etgan o'zaro bog'liq tizimga aylanishi lozim. Aqliy faoliyatdagi sintez, xolistik qarashning mavjudligi esa kreativ qobiliyat rivojini ta'minlashdi. Shuning uchun yoshlarimizdagagi kreativ qobiliyatni rivojlantirishda ta'limning barcha bosqichlarida ilmiy-metodologik dasturlar asosida tizimli faoliyat olib borish; kreativlikni rivojlantirishni ta'minlovchi shart sharoitlarni yaratish muhim ijtimoiy, gnoseologik masaladir. Zero, zamonaviy axborotlashgan, "Kreativ iqtisodiyot" tomon rivojlanib boruvchi jamiyatda inson aqli, ong strukturasining faoliyatiga xos kreativ jihatlar pirovardida rivojlanishning asosiy manbai va resursiga aylanib bormoqda. Bu o'z navbatida respublikamizda ham kreativlikning inson kapitalidagi o'mniga oid fanlararo yondoshuv asosidagi tadqiqotlarni yanada kuchaytirishni talab etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844198>
2. Барышева Т.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. - СПб.: Речь, 2009. – 268 с.
3. Боровинская Д.Н. К Вопросу о классификации теорий креативности. Вестник Томского государственного университета. 2014. № 385. С. 50–56.
4. Величко Ю.В. О соотношении понятий «Креативность», «Творческие способности», «Творческое воображение», «Творческое мышление» в исследованиях отечественных и зарубежных психологов // Известия Самарского научного центра РАН. 2014. №2-3.
5. Гарднер Г. Структура разума: теория множественного интеллекта. Пер. с англ. - М.: ООО "И.Д. Вильяме", 2007. - 512 с.
6. Гилфорд, Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. - М.: Прогресс, 1965.
7. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. - 3-е изд. - СПб.: 2007. - С. 199.
8. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиши методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан. бўйича фал. док. дисс. автореф. -Т., 2017. -Б.10.
9. Маркина Н.В. Социально-психологические факторы развития творческих способностей учащихся // Вестник ЮУрГУ, № 6, 2012. –С.96-102.
10. G'affarova, G.; Norboyeva, D. (2023). Kreativlik falsafasi. Monografiya. – Chirchiq: "Zebo print", – 105 b.
11. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. - СПб.: Питер, 2009. -C.162.

12. Князева. Е. Творчество: эпистемологический анализ. – М.: ИФ РАН, 2011. - С.21.
13. Князева Е.Н. Эпистемология креативности. - М.: Канон+ РООИ. Реабилитация, 2013. 520 с.
14. Мальцев, В.П. Современные представления о нейрофизиологических механизмах креативного мышления индивидов // Актуальные вопросы естествознания начала XXI века: Сборник научных статей. – Казань: Изд-во «Печать-Сервис-XXI век», 2010. – С.164–172.
15. Маслоу А.Г. Дальние пределы человеческой психики / пер. с англ. А.М. Татлыбаевой. - СПб., 1999. 432 с.
16. Матраева А.Д. Креативность современного Российского студенчества: состояние и перспективы. Дисс. соиск. канд. социалог. наук. –Москва: МГУ им. Ломоносова. 2019. – С.56.
17. Мелик-Пашаев, А.А. Об источнике способности человека к художественному творчеству // Вопросы психологии. 1998. № 1. – С.76–82.
18. Нагорнова, Ж.В. Динамика мощности ЭЭГ при выполнении заданий на вербальную (образную) креативность // Физиология человека. 2007. Т.33, № 3. – С.26.
19. Нариманова О.В. Креативность на личностном и организационном уровнях: современные модели и концепции // Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие. 2018. №2 (21). –С.260.
20. Чориев Ф.А. Талабаларда креатив тафаккур диагностикаси: пед.ка фан. бўйича фал. док. дисс. автореф. – Т., 2021. –Б.4.
21. Шеров М.Б. Креатив тафаккур ҳақидағи фалсафий қарашлар эволюцияси // Academic Research in Educational Sciences. Vol.1, №1, 2020. P.195-201.
22. Флорида Р. Креативный класс: люди которые создают будущее. - М.: «Манн, Иванов и Фербер», 2016. – С.32-33.
23. Carlsson, I. On the neurobiology of creativity. Differences in frontal activity between high and low creative subjects / I. Carlsson, P. Wendt, J. Risberg // Neuropsychology. 2000. V.38. № 6. – P.873–885.
24. G'affarova, G. (2024). Kreativlik falsafasi. NamDU ilmiy xabarları. 6-son, 280-283 b.
25. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
26. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(2), 13-17.
27. Gaffarova, G.; Jalalova, G. (2022). Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zaruriyatı. NamDU ilmiy axborotnomasi. №3, -B.207-212.
28. Gaffarova, G. (2022). Murakkab tizimlarda axborot generasiyasi. –Toshkent: “Noshir”, 224 b.

G.Majidova.....	93
Mitochondrial mDNK ning 16s rRNK sohasi nukleotidlari asosida <i>rhipicephalus</i> (ixodida) avlodi turlarining molekulyar – genetik tasnifi.	
R.Shapoatov.....	98
Ferula Samarkandica korovin urug' mahsuldarligiga changlatuvchi hashorotlarning ta'siri.	
U.Usanov, F.Xalimov.....	102
Biologik o'g'itlarning za'faron (<i>Crocus sativus L.</i>) mahsuldarligiga ta'siri.	
N.Ro'zmetova, S.Abdinazarov, G.Jo'rayev, N.Xo'jamshukurov.....	105
Сравнительный анализ жирнокислотного состава зеленых микроводорослей родов <i>bracteacoccus</i> и <i>pseudomuriella</i> (<i>Sphaeropleales, Chlorophyta</i>).	
Y.Tuxtaboeva.....	114
Development of innovative technology of structured dairy desserts for restaurant business.	
G.Deynichenko, V.Skrynnik, N.Fedak.....	121

FALSAFA FANLARI

09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ PHILOSOPHICAL SCIENCES

Huquqiy bilish rivojining ijtimoiy-falsafiy ildizlari.

N.Nuritdinov.....	125
-------------------	-----

Insoniyat tarixining ayni ijtimoiy harakati va uning jahon miqyosida turli-tuman mahalliy va xususiy ko'rinishlari.

J.Quchqorov.....	130
------------------	-----

Kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida.

G.G'affarova.....	133
-------------------	-----

Islom dinida borliq substansiysi muammosi.

E.Ulug'murodov.....	138
---------------------	-----

Kiberbulling va uning yoshlar hoyotiga ta'siri.

A.Lutfullayev.....	141
--------------------	-----

Najmiddin Kubro ta'limotida "Ofoq va anfus" nazariysi.

I.Jabborov.....	145
-----------------	-----

Nosiriddin Tusiyning ta'lim va tarbiya falsafasi.

U.Sobirov.....	149
----------------	-----

Markaziy Osiyo xalqlaridagi umumiylilik, integratsiya va milliy taraqqiyot modellari, uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni.

Sh.Haydaraliyev.....	153
----------------------	-----

Цифровая грамотность и формирование духовно-нравственного мировоззрения молодежи в образовательном процессе: философский анализ.

III.Fulomov.....	158
------------------	-----

Yoshlar tafakkurini rivojlantirish uchun falsafiy va matematik yondashuvlarni birlashtirish imkoniyatlari.

F.Nabiiev.....	162
----------------	-----

Ekzistensializm falsafasi - inklyuziv ta'lim asosi sifatida.

M.Mamadjonova.....	166
--------------------	-----

Jamiyatning rivojlanish jarayonlarini boshqaruvchi va belgilovchi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari.

Z.Kimsanboyeva.....	170
---------------------	-----

Ichki ishlar xodimining tibbiy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari.

A.Tursunpo'latov.....	174
-----------------------	-----

Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni namoyon bo'lish jarayonining ijtimoiy-falsafiy omillari.

X.Asqarov.....	178
----------------	-----

Xotin-qizlar huquqbazarligini oldini olishda gender omillari jahon olimlari tadqiqotlarida.

A.Xojaeva.....	182
----------------	-----

Zamonaviy yoshlarning ma'naviy-axloq tarbiyasi shaxsni shakllantirish va rivojlanishning asosi.

I.Abdullayev.....	185
-------------------	-----

O'zbek davlatchiligi tadrijida kadrlar siyosatining ma'naviy asoslari.

D.Ismailov.....	189
-----------------	-----

Qadimgi sivilizatsiyalarda sportning paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili.

Z.Jumakulov.....	194
------------------	-----

Globallashayotgan dunyoda ijtimoiy ahloq.

B.Xolbekov.....	200
-----------------	-----

Mahmud Zamaxshariyning bilish nazariysi.